

## AHOLINI VA RAHBARLAR TARKIBINI O'QUV MASHQLARI ORQALI SODIR BO'LISHI MUMKIN BO'LGAN FAVQULODDA VAZIYATLARGA TO'G'RI HARAKAT QILISHGA O'RGATISH TARTIBI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14901374>

**Ziyodulloyev Baxriddin Mardonovich**

*Buxoro viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi*

*HFXO'M o'qituvchisi.*

### **Annotasiya**

So'nggi yillarda dunyoning turli mintaqalarida ro'y berayotgan yirik tabiiy ofatlar va texnogen avariylar korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning boshqaruv organlari hamda kuchlarini tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash masalasi naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda.

Ma'muriy-hududiy birliklar va korxonalar, tashkilotlarida o'quv mashqiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish jarayoni, o'quv mashqi bo'yicha hujjatlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish, jalb etiladigan boshqaruv organlari va kuchlarining harakatlarini baholash, o'quv mashqlari natijalarini tahlil qilish va samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Крупные стихийные бедствия и техногенные аварии, произошедшие в различных регионах мира в последние годы, демонстрируют, насколько актуальна проблема подготовки органов управления и сил предприятий, организаций и учреждений к реагированию на чрезвычайные ситуации природного и техногенного характера.

Процесс подготовки и проведения учений в административно-территориальных единицах, на предприятиях и в организациях имеет большое значение для разработки и реализации учебных документов, оценки действий привлекаемых органов управления и сил, анализа результатов учений и повышения их эффективности.

Major natural disasters and man-made accidents occurring in various regions of the world in recent years demonstrate how urgent the issue of preparing management bodies and forces of enterprises, organizations, and institutions to respond to natural and man-made emergencies is.

The process of preparing for and conducting training exercises in administrative-territorial units and enterprises and organizations is of great

importance for developing and implementing training documents, evaluating the actions of the involved management bodies and forces, analyzing the results of training exercises and improving their effectiveness.

### **Tayanch soʻzlar**

Oʻquv mashqi, favqulodda vaziyat, tayyorgarlik, oʻtkazish, oʻrganuvchi, kuch va vositalar, boshqaruv organlari, ishtirokchilar, hujjatlar, aloqa va xabar berish.

### **Ключевые слова**

Учения, чрезвычайная ситуация, подготовка, проведение, обучаемый, силы и средства, органы управления, участники, документы, связь и отчетность.

### **Key words**

Exercise, emergency, preparation, conduct, trainee, forces and means, management bodies, participants, documents, communication and reporting.

**Oʻquv mashqida aks ettirilgan tezkor vaziyat boʻyicha oʻquv mashqi mavzusi va maqsadlariga muvofiq boshqaruv organlari oʻziga yuklatilgan vazifalarni bajarish doirasida kuch va vositalarni boshqarishni amalga oshiradi.**

**Oʻquv mashqi quyidagicha tasniflanadi:** oʻtkazish darajasiga koʻra – mintaqaviy, hududiy (*viloyat, tuman, shahar*), obyekt; belgilanishiga koʻra – rejali, maxsus, koʻrgazmali, tajribali (*tadqiqot uchun*), tekshirish; oʻtkazish usuliga koʻra – xaritada (*nazariy*), joyiga chiqqan holda amaliy tadbirlarni bajarish orqali; oʻtkazish shakliga koʻra – hamkorlikdagi va alohida; boshqaruv organlarini jalb etish koʻlamiga koʻra – bir darajali va koʻp darajali.

**Boshqaruv organlari hamda kuch va vositalarning oʻziga yuklatilgan vazifalarni bajarishga shayligini baholash, rejalashtirish hujjatlari realligini aniqlash uchun kuch-vositalar jalb qilinadi.**

Oʻquv mashqi rejaga muvofiq oʻtkazilib, oʻquv mashqi **masʼullar, davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat boshqaruvi organlarining rahbarlari boshchiligida oʻtkaziladi.**

Tayyorgarlik koʻrish va oʻtkazish uchun rahbarlar tarkibi va vositachilar tayinlanib, ular asosan **oʻquv mashqi rahbari, uning oʻrinbosarlari, yordamchilari, rahbariyat shtabi va vositachilardan tashkil topadi.**

Rahbarlar tarkibi oʻquv mashqiga qoʻyilgan vazifa va darajasidan kelib chiqib belgilanadi.

**Oʻquv mashqi rahbari** belgilangan talablar asosida va sifatli oʻtkazilishi uchun **javobgar hisoblanadi.** U oʻquv mashqi gʻoyasini, tadbirni oʻtkazish joyi va vaqtini, jalb etiladigan boshqaruv organlari, kuch va vositalarni belgilaydi. Asosiy hujjatlarining ishlab chiqilishini, jalb etiladiganlarning tayyorgarlikdan oʻtkazilishini tashkil qiladi.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda fuqaro muhofazasi sohasidagi **vazifalar bo'yicha tadbirlar ko'rib chiqiladi.**

**O'quv maqsadlari** va mavzusiga ko'ra doimiy joylashuv joylari yoki o'quv mashqi rejasiga asosan boshqaruv organlari va kuchlarni amaliy tadbirlar o'tkaziladigan hudud (*obyekt*)ga olib chiqilganidan keyin boshlanishi mumkin.

O'quv mashqi tadbir boshlanganligi to'g'risidagi **signal** (*farmoyish*)ning berilishi (*boshqaruv organlari va kuchlarni tegishli tayyorgarlik rejimiga o'tkazish bo'yicha*) yoki **favqulodda vaziyat** ro'y berganligi to'g'risidagi **xabarning olinishi bilan boshlanadi.**

O'quv vaqtidan samarali foydalanish maqsadida mavzusi va o'quv savollaridan kelib chiqib, quyi darajadagi boshqaruv organlari yuqori turuvchi boshqaruv organlari tomonidan qarorlar qabul qilinganligi hamda kuchlarga vazifalar belgilash yakuniga yetkazilganidan keyin **o'quv jarayoniga jalb etiladi.**

O'quv mashqi, rejalashtirilgan muddat davomida uzluksiz yoki tezkor tanaffuslar e'lon qilinishi orqali **o'tkazilishi mumkin.**

Odatda tezkor tanaffuslar o'quv mashqi jarayonidagi murakkab tadbirlarni ko'rib chiqish jarayonida, o'quv savollari bo'yicha qo'shimcha tadqiqot o'tkazish zarurati yuzaga kelganda yoki o'rganuvchilar o'ziga yuklangan vazifalarni belgilangan muddatlarda **bajara olmaganda qo'llaniladi.**

Tezkor tanaffuslar davomiyligi rahbar tomonidan belgilanadi.

**O'quv mashqi rahbariyati va vositachilar guruhining asosiy ishi quyidagilardan iborat:** o'rganuvchilar tomonidan ishlab chiqilgan hujjat (*reja*)lar, qabul qilingan qaror (*buyruq, farmoyish*)larni o'rganish; o'rganuvchilarning ish usullarini joyida ko'rib chiqish; vaziyatni keskinlashtirish; boshqaruv organlari va kuchlarning amaliy harakatlarini nazorat qilish; boshqaruv organlari va kuchlarning hamkorligini baholash; muammoli masalalarni tadqiq etish.

**O'rganuvchilar tomonidan qabul qilingan qaror** (*o'tkazilgan tadbir*)lar va ularning ish usullari samaradorligini baholash hamda tahlil qilish o'quv mashqi rahbariyati va vositachilar tomonidan bajarilgan tadbirlarni yuzaga kelgan holatda qo'llashning maqsadga muvofiqligi, real vaziyatda qanday natijaga olib kelishi, ijobiy va salbiy tomonlari bo'yicha **xulosa chiqarishga yordam beradi.**

Tadbirlar o'quv mashqi rahbariyati, vositachilar va ekspertlarni jalb etgan holda joyiga chiqib o'tkaziladi.

O'tkazilgan tadbirlar natijalari bo'yicha tajriba va **xulosalar** favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularda harakat qilish, fuqaro muhofazasi rejalari, shuningdek, boshqa rejalashtirish hujjatlarini **qayta ishlash va aniqliklar kiritishda hisobga olinishi lozim.**

O'rganuvchilarning faoliyati yakunlari bo'yicha o'quv mashqi rahbarining o'rinbosarlari, vositachilar rahbar tomonidan belgilangan muddatlarda buysunuv tartibida **xabarnomalar**

**taqdim etadilar.** Xabarnomalar odatda har bir bosqich bo'yicha, yakuniysi – o'quv mashqi yakunlari bo'yicha kiritiladi.

**Xabarnomalarda quyidagilar aks ettiriladi:** rahbarlar, boshqaruv organlari faoliyati, kuchlarning harakatidagi ijobiy va salbiy tomonlar; boshqaruv organlari, kuchlarning hamjihatligi, shaxsiy tarkibning o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishi va tayyorgarlik darajasini baholash; o'tkazilgan tadqiqot ishlari natijalari. Xabarnomalar qisqa, ma'noli bo'lishi va tahlil qoidalari asosida asoslangan raqam, aniq faktlar keltirilgan holda tayyorlanishi shart. Xabarnomalar rahbariyat shtabiga berilib, umumlashtiriladi va rahbar ko'rsatmasi asosida muhokamalarda **ko'rib chiqiladi.**

O'quv mashqi rahbariyati, rahbariyat shtabi va vositachilarni tayyorlash ishlari oldindan ishlab chiqilgan reja asosida, aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda fuqaro muhofazasi sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini chuqur o'rganish maqsadida o'tkaziladi. Shuningdek, o'quv mashqini o'tkazish hujjatlaridagi o'quv savollariga muvofiq maqsad va vazifalari, yagona qarashlar va g'oyaning mosligi, belgilangan vazifalarni **bajarish imkoniyatlari** hamda bajarilayotgan ishlarning **real holatini aniqlash uchun tashkil etiladi.**

Rahbariyat va vositachilar o'quv mashqi rahbari, uning ko'rsatmasi asosida rahbariyat shtabi tomonidan **yo'riqnoma shaklidagi** mashg'ulotlarda yoki mustaqil tayyorgarlik tadbirlari davomida **o'tkazilishi mumkin.**

Mashg'ulotlar shaklida o'tkazilganda har bir tadbir bo'yicha muammoli masalalar aniqlanib, muhokama qilinadi va muammoni hal etishga qaratilgan vazifalar mashg'ulot **ishtirokchilari tomonidan bajariladi.**

Yo'riqnoma mashg'ulotlarini o'tkazish hujjatida o'quv mashqi mavzusi, vaqti, shakli, o'tkazish tartibi, qatnashchilar tarkibi, ko'rib chiqiladigan masalalar va mas'ullar belgilanib, hujjat rahbar tomonidan tasdiqlanadi. Mashg'ulotga g'oyas, rahbariyat shtabi, vositachilar faoliyati hamda xabarnoma, ma'lumot va tahlillarni taqdim etish tartibi belgilanadi.

Shuningdek, rahbarlik hujjatlarining talablari yetkazilib, tadbirlarni ko'rib chiqish va birlashtirilgan vazifada ishni tashkil etish bo'yicha tayyorgarlik holati ko'rikdan o'tkaziladi.

Mashg'ulotlar guruhlar tarkibida tashkil etilishi mumkin.

O'quv mashqiga tayyorgarlik ko'rish va joyiga chiqib o'rganish davrida boshqaruv, aloqa va xabar berish masalalarini amalda, to'liq hajmda va haqiqiy vaziyatda **o'tkazish belgilanishi lozim.**

Bunda asosiy e'tiborni aloqa va xabar berish tizimining imkoniyatlari, boshqaruv punktlarining holati, aloqa, xabar berish va axborot almashinuvini olib borish tartibi rahbarlik hujjatlari ishlab chiqilganligi hamda **tayyorgarlik darajasiga qaratish lozim.**

O'quv mashqi davomida aloqa va xabar berish tizimida signal va ma'lumotlar o'rganuvchilar va hamkorlikdagi tizimlarga tezkor yetkazish bilan birga, o'quv mashqi

ishtirokchilari o'rtasida **axborot almashinuvini** tashkil etish, tezkor xizmatlarning favqulodda vaziyatlarda harakat qilishini **ta'minlashga xizmat qilishi kerak**.

Mavjud aloqa va xabar berish vositalari yetarli bo'lmaganda, boshqaruv punktlarini qo'shimcha ravishda zaruriy aloqa va xabar berish vositalari bilan jihatlash zarur. Buning uchun, tadbir davomida xizmatlarning aloqa va xabar berish hamda hamkorlikdagi tizimlarning aloqa vositalarini jalb etish imkoniyatini ko'rib chiqish muhim.

O'quv mashqiga tayyorgarlik jarayonida boshqaruv organlari, kuchlar va hamkor xizmatlarni xabar berish, favqulodda vaziyatlar bo'yicha axborot almashinuvini tashkil etish va signallar bo'yicha harakat qilish yuzasidan mas'ul xodimlar bilan mashg'ulotlar o'tkazilishi **maqsadga muvofiq**.

**Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimi**, bugungi kunda favqulodda vaziyatlarni oldini olishga jalb etiladigan kuch-vositalar va ularning shayligini ta'minlash, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarda **to'g'ri harakat qilishga tayyorlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi**.

Bu orqali, aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda fuqaro muhofazasi tadbirlarini samarali tashkil etish, boshqaruv organlarining favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va zararini kamaytirish tadbirlarida kuchlarni boshqarish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, shuningdek, hamkorlikdagi tizimlarning favqulodda vaziyatlarda birgalikda harakat qilishga tayyorgarligini oshishiga erishiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida" 2022-yil 17-avgustdagi 790-son Qonuni. <http://lex.uz//docs/6161244>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2019-yil 9-sentyabrdagi 754-son Qarori. <http://lex.uz//docs/4508476>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023 yil 29 apreldagi 171-son Qarori. <http://lex.uz//docs/6448083>
4. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining <https://gov.uz/oz/fvv> internet saytidagi ma'lumotlari.